

SHUKUR XOLMIRZAYEV BARHA YOT IJODI*Qurbonov Dilshodbek Norxidir o'g'li**Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san'at fakulteti**Madaniyat va San'at Muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada zabardast o'zbek adibi Shukur Xolmirzayevning ijodi hayoti haqida va bugungi kundagi izlanishlar haqida so'z boradi. Bizga ma'lumki yozuvchi ijodiga ko'plab izlanishlar olib borilgan. Yozuvchining adabiyot sohasida qo'shgan hissasi ne chog'li ko'lamligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: nasr, realizm, adib, kitobxon, hayvonot, san'at, adabiyot, roman, hikoya.

O'zbek adabiyotida realizm nasr namunalari paydo bo'lganidan so'ng bu narsa mamlakatning chekka hududlaridan biri bo'lgan Surxondaryoda ham asta-sekin nasrda ijod qiladigan ijodkorlar paydo bo'la boshladi. Surxon nasrining vakillari haqida so'z yuritganda ularning yoshiga emas, ijodga ilk qadami, milliy adabiyotimizda tutgan o'rniga qarab ketma-ketlikda so'z yuritishni lozim deb topdik. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ilk namoyanda sifatida Shukur Xolmirzayev haqida gapirish o'rinli bo'ladi, nazarimizda. Surxondaryolik ijodkorlar orasida ilk nosirlardan biri sifatida o'zbek adabiyotida yuqori pog'onalarni zabt etgan Shukur Xolmirzayev ijodining o'ziga xosligi, tasvir va ifoda usulining o'zgachaligi bilan kitobxonlar qalbidan joy egalladi. O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhordan so'ng o'ziga xos hikoyachilik maktabiga asos solgan adib O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti, "Mehnat shuhrati" ordeni kabi yuksak mukofotlarga loyiq ko'rilganligi ham uning ijodi chin ma'noda e'tirofqa loyiq ekanligining dalilidir. Shukur Xolmirzayev o'zining har bir asarida boshqalarga xos bulmagan detalar va boshqa elementlardan foydalangani bilan farq qiladi. Uning asarlarda tabiat, hayvonot va nabotot olam yuqori darajada mohirlik bilan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

Romanlarda ham adib o'z ijodiy yo'nalishi va uslubiga sodiq qolgan. Xalqimiz hayotining burilish pallalarini, yurtdoshlarimiz taqdiridagi muhim jarayonlarni, o'zbekni o'zbek qilgan fazilatlarini, bir so'z bilan aytganda, millatruhini aks ettirish bu romanlarning ham yetakchi xususiyatidir. Ijodkorning badiiy mahorati haqida bir qator ishlar qilingan, tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, H. Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti" nomli risolasi, akademik B. Nazarovning "Shukur Xolmirzayev" deya nomlangan ijodiy portreti yaratilgan, yana yozuvchi hikoyalari

haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yoʻldoshev, H.Boltaboev, O.Otaxonov, R.Qoʻchqorov kabi olimlar, qissalari toʻgʻrisida esa M.Qoʻshjonov, A.Rasulov, M.Olimov kabi adabiyotshunoslar, romanlari yuzasidan U.Normatov, I.Gʻafurov, S.Sodiqov va boshqa olimlarning katta-kichik ilmiy maqolalari eʻlon qilingan. Biroq bu tadqiqotlarda adib ijodining ayrimqirralarigina yoritilgan edi xolos. Shukur Xolmirzayevning hikoyalar yozishdagi badiiy mahorati, soʻz qoʻllash sanʼati, tasvirlash uslubi haqida keng koʻlamdagi ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tavaldiyeva, Sh.Doniyorova kabi adabiyot ilmi bilimdonlari yozuvchining hikoyalaridagi oʻziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillarishu yerdan kurishimiz mumkun buyuklar , oʻlmaydi buyuklar xotiralarga muhurlanadi degani shunday bulsa kerak.

Adabiyot haqida har kimning oʻz nuqtai nazari boʻlishi ham tabiiy. Shu maʼnoda bilimdon adib, chin ziyoli Shukur Xolmirzayevning adabiyot, ijod va hayot haqidagi fikrlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Qolaversa, Shukur aka uchun adabiyot hayot kechirish vositasi emas, balki yashashning shakli ediki, Soʻz sanʼatiga soʻngsiz fidoyilik nafaqat oʻzbek, balki dunyo adabiy jarayonida ham kamyob hodisa sanaladi. Sanʼatsiz, adabiyotsiz yashashni tasavvur etolmaydigan qahramonlar talqini Shukur Xolmirzayevning soʻnggi davrda yozgan asarlarida bot-bot koʻzga tashlanadi, binobarin, ushbu omil ham yoshi ulgʻayib, hayotdagi aqidalari qatʼiylashgan, xulosalari aniqlashgan muallifning maslagi haqidagi tasavvurimizni yanada boyitadi. Ijodkorlikning qismat, umr savdosi ekanini anglatuvchi taʼkid adibning adabiy-tanqidiy maqolalarini umumlashtirib turuvchi yagona mushtarak belgidir.

Shukur xolmirzayevning vafotidan soʻng yozuvchi sifatidagi salohiyati boʻrtibroq namoyon boʻldi. Buning asosiy sabablaridan biri – adibimiz uzoq yillar kitob chop ettirmay yurganidandir balki. Buning yana bir boisi eski asr oxiri, yangi yuzyillik boshlariga kelib yozuvchi zotining oʻzi mening yozganim birovga kerakmi, oʻqiydiganlar bormi, adabiyot atalmish serhasham imorat oʻzining xizmat vazifasini oʻtab boʻlmadimikan, degan hadiksirash, ikkilanish boshlanganidan edi. Axir, Shukur aka “Adabiyot oʻladimi?” deb bong urganida 1993-yil edi adashmasam. “Yoʻq, adabiyot oʻlmaydi”, deb yoppasiga eʼtiroz bildirdik. Aslida adib chuqur istehzo qilgan edi. “Oʻlmasligini oʻzim ham yaxshi bilaman”, degandek shartta “Dinozavr”ni yozdi. “Dinozavr” oʻsha kunlarning zamonaviy birinchi romani edi. Shukur aka prozada birinchi boʻlb zamonaviy obrazni yaratdi. Faqat bu odam ziyoli – sanʼatkor obraz edi. Talab etilayotgan “mustaqillik bunyodkori” emasdi, xolos. Aslida-ku, adabiyotning ilgʻorligi bu bilan ham belgilanmaydi va belgilanmasligi ham kerak. Yozuvchi oʻzining qalb prizmasidan oʻtkaza olgan odamnigina yarata oladi. Oʻzi qamrovli nasr jurnalistika, sheʼriyatdan orqaroqda

keladi. Holbuki “Dinozavr” yaratilganda o‘zbek hikoyasi va qissachiligida hali “raykom”, “komsomol”, “partiya” degan narsalar chuvalashib yurar edi. Shu ma’nodagi og‘irkarvon janrga baho berilganda qahramonning “dolzarbligi” masalasida baholashga shoshmagan ma’qul, aksincha, asarning o‘z tabiatidan kelib chiqib xulosa qilgan yaxshiroq. “Adabiyotning o‘limi” borasida bundan sakson yil muqaddam, Tomas Mann tirik paytda, aynan nemis yozuvchilari birinchi bo‘lib bong urishgan. Bundan ellik yil oldin gvatemalalik adib, Nobel mukofoti sohibi Migel Anxel Asturias quyidagicha fikr yuritgan: “Adabiyotni hech kim o‘z-o‘zidan anglay olmaydi. Zero, ulug‘ ijodkorlar qurib ketgan binoni bir, o‘n, boringki, yuz kishilashib ham qulatolmaysiz. Biz adabiyotga mustaqil mexanizm sifatida qarashimiz kerak va shundagina u o‘zini o‘zi anglay olishini tushunamiz. Biz unga nimadir yangilik kiritamiz deb qo‘lga qalam olmaymiz. Aksincha, adabiyot bizning qo‘limiz bilan o‘zini yangilaydi. Aynan o‘sha qo‘lni topolmagan kundagina adabiyot o‘zini yo‘qlikka mahkum etadi”.

Xulosa shundan iboratki SHukur Xolmirzayev o‘lmagan u hali hanuz tirik va uning ijodi uzoq yillar yashab qoladi deymiz. Har bir adabiyotshunos adabiyotga o‘zining uchmas va takrorlanmas asarlari orqali kirib keladi va joy oladi SHukur Xolmirzayev ham shunday edi betakror asarlar muallifi deb bilamiz. Shukur Xolmirzayev aytganday adabiyot o‘lmaydi

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Qurbonov D "Adabiyotshunoslikga kirish"2004 yil
2. Boboyev T " Adabiyotshunoslik asoslari"
3. Shaxnoza Sultonqulova "SHukur Xolmirzayev ijodida detalning o‘rni"
4. Boysun tuman Axborot –kutubxona markazi Bibliografiya bo‘limi xodimi D.Bozorova
5. Sobir O‘nar `` SHukur akaning bog`lari``